

Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rinni tutadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omiliidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2020-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi — bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

**2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni - 11 512 birlik

Ularning umumiyligi
sonidagi ulushi -
64,2 %

O'tgan yilning shu davriga
nisbatan o'sish sur'atlari -
153,8 %




Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 11,5 mingtaga yetdi yoki ularning umumiyligi sonini 64,2 % ini tashkil etdi. 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 53,8 % ga oshdi.

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 16,8 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi -10,8 % ga yetdi va atigi 8,2 % qurilish sohasi hissasiga to'g'ri keldi.



Hozirgi kunda intellektual inson mehnati o'ziga xos rivojlanish va ahamiyat kasb etmoqda, uning bo'linishi maxsus ilmiy tayyorgarlikni, ko'p sonli ish o'rinalarini, odamlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini yuqori darajadagi integratsiyalashuvini va ijtimoiy farovonlikni oshirishni talab qiladigan ko'plab mutaxassislik va kasblarni yaratmoqda.

Ushbu tendensiyalar xizmatlar sohasi va boshqaruvi bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson faoliyatining boshqa sohalariga nisbatan uning jadal o'sishini belgilaydi. Masalan, iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlariga qaraganda, yuqori daromadliligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, xizmatlar ro'yxati doimiy ravishda kengayib bormoqda.

**2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**2020-yil 1-aprel holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (47,8 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,8 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 4,9 % ga yetdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,8 % ga teng bo'ldi. Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019-yil 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 7,5 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari - 32,5 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,4 %, tashish va saqlash - 6,6 %, axborot va aloqa - 2,2 %, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,1 % hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar - 43,2 % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiatи, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab va o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 290,4 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 253,3 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasidagi aksariyat faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyati bu - mahalliylashtirishning yuqori darajasi, ma'lum bir hududga (hudud, tuman, shahar va qishloq aholi punktlari) bog'liqligi hisoblanadi. Shu sababli, faoliyatning hajmi, joylashishi, faoliyat turlari va ko'lamlari, mulkchilik shakllari, korxona va xizmat ko'rsatish tashkilotlarining ish uslublari, ularning modernizatsiya qilishdagi roli va rivojlanish potensiali, mintaqa iqtisodiyotidagi innovatsion o'zgarishlarning ehtiyojlari, ustuvorliklari va strategiyasi bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamон iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlarda ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari shakllanadi.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020-yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning mart oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 39,9 mlrd. so'mga oshdi va 448,4 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 36,7 mlrd. so'mga o'sgan va 364,6 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020-yilning birinchi diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1290,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning birinchi diskret choragiga nisbatan (1037,1 mlrd. so'm) hajmi 253,3 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2019 va 2018 yilning birinchi diskret choraklar o'rtaсидаги farq 204,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki korxonalarga, shuningdek, jismoniy shaxslarga - yakuniy iste'molchilarga taqdim etiladigan xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmini oshishiga olib keladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil moliyaviy xizmatlar 42,5 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmining mutloq o'sishiga ta'siri 7,9 % punkt), savdo xizmatlari 3,8 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 1,0 % punkt), me'morchilik sohasidagi xizmatlar 21,0 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,8 % punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 18,4 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,7 % punkt), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning 7,0 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,1 % punkt) o'sishi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining o'sishi, xizmat turlari bo'yicha mutloq ta'siri, f.p.



Dastlabki ma'lumotlar

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2020-yil yanvar-mart oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	1 290,4	111,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	59,4	118,4
Moliyaviy xizmatlar	289,6	142,5
Transport xizmatlari	210,7	100,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	189,1	108,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	49,5	101,3
Savdo xizmatlari	404,8	103,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	24,7	98,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	49,7	99,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	14,3	107,0
Ijara xizmatlari	24,8	109,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	21,5	108,8
Shaxsiy xizmatlar	33,3	105,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	56,2	121,0
Boshqa xizmatlar	51,9	100,7

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,
(2020-yil yanvar-mart oylarida)**

Moliyaviy xizmatlar

142,5 %

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

121,0 %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

118,4 %

Ijara xizmatlari

109,0 %

Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari

108,8 %

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

107,0 %

Shaxsiy xizmatlar

105,8 %

Savdo xizmatlari

103,8 %

Yashash va ovqatlanish xizmatlari

101,3 %

Transport xizmatlari

100,9 %

Boshqa xizmatlar

100,7 %

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

99,1 %

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

98,6 %

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (142,5 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (121,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,4 %), shuningdek, ijara xizmatlarda (109,0 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'limgan o'sish ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (98,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (99,1 %) va boshqa xizmatlarda (100,7 %) kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televideniya va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni ishlab chiqarish iste'molchilarining daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31,4 % ni tashkil etib, bu 404,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi umumiyligi savdo xizmatlari hajmining to'rtadan uch qismidan ko'prog'i, aniqrog'i 82,3 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 10,3 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosiga bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.


Dastlabki ma'lumotlar

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da
(2020-yil yanvar-mart oylarida)****Savdo xizmatlari - 100,0 %**

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Moliyaviy xizmatlar – bu xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachilik xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (Internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar (2020-yil yanvar-mart oylarida)



2020-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 289,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,6 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 42,5 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020-yil yanvar-mart oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiylajmi sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 94,0 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarning ulushi 4,6 % oraliqida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiylajmi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichiga ega emas va u 1,4 % ni tashkil etadi.


Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari dasturiy ta'minotini ishlab chiqish hamda keng interfaol xizmatlarni taqdim etishni o'z ichiga olgan axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruva uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yil yanvar-mart oylarida)



2020-yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 59,4 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagiligi xizmatlarning o'sish sur'ati 118,4 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.


Dastlabki ma'lumotlar

AKTdan faol foydalanish infra tuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan. Bu ish insonlarning turmush darajasini sifatini yaxshilashga asoslangan, ularning kundalik hayotini yaxshilash, davlat boshqaruvida eng yangi texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar-mart oylarida)

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,5 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmida ulushini kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar (1,2 %), noshirlik xizmatlari (1,2 %), axborot sohasidagi xizmatlar (0,9 %) va boshqa aloqa xizmatlari (0,2 %) tashkil etdi.



Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar-mart oylarida)



Transport xizmatlari umumiy hajmida quruqlikdagi transport xizmatlarining ulushi 90,3 % ni tashkil etdi.

Saqlash va boshqa yordamchi transport xizmatlarining hajmi 9,0 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida, transport xizmatlari umumiy pochta va kur'yerlik xizmatlari hajmi 0,7 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi quyidagilarni o'z ichiga oladi: qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymati; oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymati.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yil yanvar-mart oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 4,4 mlrd. so'mga oshdi va 49,5 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 3,8 % ni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020-yil yanvar-mart oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 72,2 % bilan ustunlik qiladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 27,8 % ni tashkil etdi.



Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-mart oylarida)



2020-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 49,7 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati atigi 99,1 % ni tashkil etdi.



Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.


Bugun respublikaning barcha hududlarida shuningdek viloyatimizda ham ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziatriya, akusherlik vaginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'r-satilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi - bu sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizoterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, tibbiy haydovchilar komissiyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'r-satilgan bozor xizmatlarining qiymati.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-mart oylarida)

2020-yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 2,0 mlrd. so'mga oshdi va 14,3 mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlar umumiyligi hajmida ularning ulushi 1,1 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil etdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni ishlab chiqarish iste'molchilarining daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib, respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

Xizmatlarning umumiyligi hajmida Navoiy shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 51,5 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2020-yil yanvar-mart oylarida)**



Eng katta ulush Karmana tumani (12,1 %), Zarafshon shahri (10,4 %), Qiziltepa (7,5 %) va Xatirchi (4,9 %) tumanlarida qayd etildi.


Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Tomdi (1,7 %), Nurota (2,2 %), Konimex (2,8 %), Navbahor (3,4 %) va Uchquduq tumanlarida (3,5 %) kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida Navoiy shahrining ulushi 50,1 % ni tashkil etgan.

Tomdi tumanining ulushi esa eng past - 1,8 % kuzatilgan.

Dastlabki ma'lumotlar

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
(2020-yil yanvar-mart oylarida)**



Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Navoiy va (114,1 %), Zarafshon (112,5 %) shaharlarda, shuningdek, Qiziltepa (110,9 %), Karmana (106,3 %) va Nurota (105,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan past o'sish sur'atlari Tomdi (104,7 %), Navbahor (104,9 %), Konimex (105,0 %) shuningdek, Uchquduq (105,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foy-dalanishga bog'liqdir.

Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rileyotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Navoiy shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 145,1 mlrd. so'mga oshdi va 664,3 mlrd. so'mga yetdi.

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yil yanvar-mart oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Navoiy viloyati	1 290,4	111,0	1 291,9
Navoiy shahri	664,3	114,1	4 606,7
Zarafshon shahri	134,3	112,5	1 599,3
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	36,7	105,0	1 028,6
Qiziltepa	96,5	110,9	635,3
Navbahor	43,7	104,9	386,3
Karmana	156,7	106,3	1 242,3
Nurota	28,4	105,5	306,8
Tomdi	22,0	104,7	1 489,1
Uchquduq	44,6	105,2	1 197,8
Xatirchi	63,2	105,4	317,2

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Karmana (156,7 mlrd. so'm) tumanida, Zafshon shahrida (134,3 mlrd. so'm), Qiziltepa (96,5 mlrd. so'm) va Xatirchi (63,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlash-tirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 291,9 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 1 291,9 ming so'm

2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan



Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotida zamonaviy tarkibiy o'zgartirishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy shart hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi. Kelajakda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, samarali bandlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil, aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-84-37;79-223-63-31.